



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiyy-teoriyalıq konferenciya

FUQAROLIK JAMIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLA INSTITUTINING O'RNI VA AHAMIYATI

Pirniyazova Miyrxan,
*NDPI Aniq va tabiyiy
fanlarni masofadan
o'qitish kafedrası
assistant o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda mahalla institutining orni va ahmiyati haqida, demokratiyaning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi hisoblanib, O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tizimining asosiy bo'g'inini mahallalar tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: mustaqilllik, davlat, fuqarolik jamiyat, bashqarish tizimi, demokratiya, mahalla, oyta, insan, fuqaro, huquq va erkinliklar.

Davlatimiz mustaqillikni qo'lga kiritganidan so 'ng qisqa vaqt ichida asrga tativlik ko'plab ishlar amalga oshirildi. Shu yillar mobaynida mamlakatimizda kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish uchun boshqaruv tizimini isloh qilish borasida ham talaygina ishlar amalga oshirildi. Shuningdek, mahallalar faoliyati butunlay yangicha mazmun kashf etib, jahon tajribasida mahalla deb ataluvchi yagona, betakror boshqaruv instituti faqat bizdagina mavjud¹. Ushbu tizim mamlakatimizda qadimdan mavjud bo'lib, hozirgi kunga qadar ham o'z samarasini bermoqda.

Binobarin, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev "Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Bu maqsadga erishish uchun esa dunyodagi noyob demokratik tuzilma bo'lgan mahalla instituti imkoniyatlaridan samarali foydalanish, uning vakolatlarini yanada kengaytirish, pirovard natijada mahallani jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'iniga aylantirish vazifasini o'z oldimizga qo'ymoqdamiz. Mahalla tinch bo'lsa, yurt tinch bo'ladi. Mahalla obod bo'lsa, butun mamlakat obod bo'ladi"², - deya bejiz ta'kidlamagan edi.

Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Farobi, Mahmud Qoshg'ariy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida mahalla to'g'isidagi ma'lumotlar ko'plab uchraydi. Masalan, Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Beruniyning "Uy xo'jaligini yuritish to'g'risida", Mahmud Qoshqariyning "Devoni lug'ati turk" asarlarida mahalla aholisi,

¹ Jalilov Sh. H. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: tajriba, tahlil, amaliyot. -T. O'zbekiston, 2001. 3-6.

² Xalq so'zi gazetasi. 2022 yil 27 yanvar. № 18. (8080) 1-sahifa



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍnda ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

ularning kasbi-kori, urf-odatlari, an'analarini, diniy e'tiqodi, xo'jalik yuritishi va umuman o'ziga xos turmush tarzi haqida batafsil ma'lumotlar berib o'tganlar³ va ushbu ma'lumotlar asosida biz qadimda mahalla instituti qanday ko'rinishda bo'lganligini borasida ma'lumotga ega bo'lamiz.

Shuningdek, demokratiyaning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biri fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi hisoblanib, O'zbekistonda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish tizimining asosiy bo'g'inini mahallalar tashkil qiladi. Demak, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishini yaxshi bilishimiz uchun, avvalambor, uning asosiy bo'g'ini bo'lmish mahallalarning tarixini o'rganishimiz lozim, zero haqqoniylarini bilmasdan turib o'zlikni anglash mumkin emas⁴.

Shunday ekan, biz fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish o'rganlarining asosiy bo'g'ini bo'lmish mahallalar tarixiga murojat qilamiz. Holbuki qadimda bizning yurtimizda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishi mahalla shaklida namoyon bo'lgan va shakllangan, shuning uchun biz ko'proq mahalla institutiga e'tibor qaratamiz.

Mahalla tartib qoidasi, qadriyatlariga barchaning amal qilishi shartdir. Ma'naviy - axloqiy tarbiya mahallada shakllanadi va ravnaq topadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev takidlaganidek, "Mahalla instituti shuning uchun chin ma'noda xalqning joylardagi maslakdoshi va ko'makdoshiga, "adolat tarozisi"ga aylanishi odamlarning davlatga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlaydi"⁵, deb tushuntirib berar ekan, bu borada kattalar o'rnak, namuna va tashabbuskor bo'lishlari lozim. Mahalla-oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan maskandir. Tabiiyki, oilada, ba'zan arzimagan narsa tufayli janjal chiqishi va bu haqda er yoki xotin mahalla qo'mitasiga murojaat etishi lozim. Ular yarashtirish ishlarini olib borgan holda, bu janjallar farzandlar tarbiyasiga nihoyatda, og'ir ta'sir etishini, ularning kelajagiga ta'sir etishini uqtirib borishlari kerak. Chunki bola uyida ko'rganini qiladi va amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtrish, mahalla institutini yana-da qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi oila, xotin-qizlar va keksalarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

³ Gulomov M. Mahalla – fuqaralik jamiyatining asosi. T.: "Adolat" 2003.

⁴ Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q;. Muloqot. 1998. №5. 16-6.

⁵ Prezidentimizning Mahalla tizimi va xodimlari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 2020 yil 18-fevral.



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍNDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındağı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

organları bilan hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha vakolatlı davlat boshqaruvi organı ekanligi belgilab qo‘yildi. Mahalla institutining jamiyatımız ijtimoiy-ma’naviy hayotida tutgan o‘rnini hisobga olib, soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida 22-mart –“Mahalla tizimi xodimlari kuni” deb e’lon qilindi.

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla tizimi xodimlari” kuni munosabati bilan so‘zlagan nutqida quyidagi fikrlarni ta’kidlaydilar. Mahalla - asrlar osha milliy urf-odat va an’ analarimizni bezavol saqlab, xalqımız uchun ezgulik tarbiya beshigi, yaxshi qo‘sningchilik va hamjihatlik maskani bo‘lib kelmoqda. Biz mahalla deganda, dunyoda kamdan-kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan bilan uyg‘un bo‘lib yashashga o‘rgatib, bag‘rikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat o‘rtasidagi ishonchli ko‘prik vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz. Bu - davlatning zamini, - dedi Prezidentimiz. - Mahalla obod bo‘lsa, mamlakat obod bo‘ladi.⁶

Xulosa qilib aytganda, ushbu qilinadigan ishlar mahalla bilan oila hamkorligini mustahkamlaydi. Yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar mahallaga hurmat, u yerda istiqomat qiluvchilarga nisbatan yaqinlik, mehr - oqibat ruhida tarbiyalanadilar. Mahallaning to‘y -ma’rakalarida o‘zlarining ota-bobolariga o‘xshab yelkadosh, birovning og‘irini yengil qilishga shay bo‘lib o‘sadilar.

Adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh. Mahalla davlatning zamini. 2022. 18-fevral.
2. Prezidentimizning Mahalla tizimi va xodimlari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. 2020 yil 18-fevral.
3. Jalilov Sh.H. Kuchli davlatdan – kuchli jamiyat sari: tajriba, tahlil, amaliyot. -T. O‘zbekiston, 2001. 3-6.
4. Xalq so‘zi gazetasi. 2022 yil 27 yanvar. № 18. (8080) 1-sahifa
5. Gulimov M. Mahalla – fuqarolik jamiyatning asosi. T.: "Adolat" 2003.
6. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q;. Muloqot. 1998. №5. 16-6.

⁶ Mirziyoev Sh. Mahalla davlatning zamini. 2022. 18-fevral.